

Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!

Tong yulduzi


Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:32 (67197)
2018-yil 6-avgust

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

**Bog'chamizda quvnaymiz shodon,
Baxt bezadi bizga bog'cha jon!**



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 461-maktabgacha ta'lim muassasasida bolajonlarning har bir kuni mazmunli o'tmoqda.

USHBU SONDA:

«KAMALAK» DA TA'TIL

2-bet

YANGI O'QUV YILIGA MAKTAB

3-bet

O'ZGANING HAQI
(Hikoya)

6-bet

Odam qanchalik ma'rifatli bo'lsa,
el-yurtga shunchalik foydasi tegadi.

SEVIMLI MASKAN

Quvasoy shahridagi Qo'chqorchi qishlog'i yurtimizning so'lim va xushmanzara go'shalaridan biri hisoblanadi.

Ayni kunlarda bu maskanda «Farg'onazot» ochiq ak-siyadorlik jamiyati tasarrufidagi «Kimyogar» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi faoliyat yuritmoqda. Bu maskan korxonalar ishchilarining 1200 nafardan ziyod o'g'il-qizlarini o'z bag'riga olgan. Dam oluvchilar uchun 10 ga yaqin to'garak faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, ziyoratgoh, qadamjolariga uyushtirilgan ekskursiyalar bolalarning ta'til kunlariga yanada mazmun baxsh etmoqda.

Muhammadjon MAHMUDOV

OROMGOHDA KO'RGAZMALAR KUNI

Yozgi ta'tilda maktabimizda «Beg'ubor yoshlik» nomli kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohi faoliyat olib bordi. Biz ustozlar barcha mavsumlar davomida bir-biridan rang-barang tadbir va to'garaklarni tashkil etdik.



Bolalarga, ayniqsa, ularning ijod namunalari namoyish etishga imkon yaratgan «Ko'rgazmalar kuni» juda ma'qul bo'ldi. Muzeylarga uyushtirilgan sayohatlar ham ularga olam-olam quvonch bag'ishladi. «Yo'l harakatini o'rganamiz» nomli davra suhbatida esa o'quvchilar o'zlari uchun kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



oromgoh faoliyatidan mamnun ekanliklarini bildirishdi. Bu esa biz ustozlar uchun eng katta e'tirofdir.

Hamida EGAMQULOVA,
Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi
141-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

«Kitoblar olamida», «Yosh musavvirlar», «Qiziqarli matematika», ingliz va rus tili kabi to'garaklarda esa dam oluvchilar bo'sh vaqtlarini yanada mazmunli o'tkazdi. «Ertakchilar kuni»da kitobxonlar yangi nashr etilgan kitoblar taqdimotini o'tkazib, sevimli ertaklarini sahnalashtirdi. Azimjon Abdurahimov, Bahodir Komilov, Umarjon Adhamov, Muslima Damimova, Mehri Ikromova kabi faol va zukko o'quvchilar

PARVINANING PARVOZI

Yangi o'quv yilida faqat a'lo baholarga o'qishni rejalayotgan Parvina Musurmonova ta'til kunlarini mazmunli o'tkazmoqda.

Ingliz tilini chuqur o'rganish, kitob o'qish bu qizning sevimli mashg'uloti. O'tgan o'quv yilida u fanlar olimpiadasining viloyat bosqichida faxrli o'rinni egallagan edi. Buning uchun Parvina ustozlari Muhiba A'zamovadan behad minnatdor. Hozirda ingliz tili o'qituvchisi Sardor Norqulov ko'magida chet tilini mukammal o'rganmoqda.

Shuningdek, Parvina ukalarini ham faol va a'lochi bo'lishga chaqiradi.

Farzandlarining ana shunday barkamol bo'lib voyaga yetishlarida otalari Nafar aka Norboyevning xizmati katta. Kelajakda Parvina barcha orzulariga yetishib, katta yutuqlarga erishishini istayman.

Namoz QARSHIYEV,
Jizzax viloyati, Arnasoy tumanidagi
17-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabida «Kamalak» yozgi sog'lomlashtirish oromgohi 4-mavsumda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilorom Boymatova rahbarlik qilgan oromgohda bolajonlarning bo'sh vaqtlari mazmunli o'tishiga alohida e'tibor qaratildi.

«KAMALAK»DA TA'TIL

«Rangli olam» (asfaltga rasm chizish), «Mevalar nomini men aytay» (ingliz tilida), «Ertaklar-yaxshilikka yetaklar» kabi

esa jismoniy tarbiya o'qituvchisi Zohir Zohidov rejalashtirdi. Ustozning ertalabki badantarbiya mashqlarida bolajonlar faol ishtirok etishdi. Turon AKTda Zulxumor Mardonova boshchiligidagi «Ifodali o'qish» shiori ostida tanlov o'tkazildi. Unda 3-«A» sinf o'quvchisi Malika Shodmonova 1-o'rinni egalladi va faxriy yoriq bilan taqdirlandi. Shuningdek, 10-madaniyat va aholi dam olish markazining «Parvoz» teatri va «Gulg'un-



tadbirlar «Kapalak» va «Bulbulcha» guruhlarini rahbarlari Sayyora Boymatova va Rohila Mamasiddiqova tomonidan yuqori saviyada tashkil-lashtirildi. «Sog'lom yurtning sog'lom farzandiman» mavzusidagi estafetani



cha» raqs dastasi bolalarga «Andijoncha», «Mening yurtim», «Qizlarjon», «Lazgi», «Do'ppi» va boshqa bir qancha raqslarni o'rgatdi. «Kamalak»da o'tgan ta'til bolajonlar uchun o'qish, o'rgatish fasli bo'ldi.

O'QUVCHIGA 10 TA KITOB

Maktabimiz kutubxonasida «Yoz – o'tadi soz!» mavzusida tadbir tashkil etildi. Kechaga kutubxonachimiz **Muyassar opa Isanbayeva bosh-qosh bo'ldilar.**

Tadbirni maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari **Barno opa Almatova** ochib berdilar. Badiiy kechada 5–8-sinf o'quvchilari o'zlarini yoqtirgan asarlardan parchalar, 9–10-sinf o'quvchilari esa **Muhammad Yusuf** va **Zulfiyaxonim she'rlaridan** mushoiralar aytib, o'z bilimlarini charxladilar.

Yig'ilganlarga, ayniqsa, **Abdulla Qahhorning «Anor»** hikoyasi, **Oybekning «Bola Alisher»** qissasi, **Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor»**

dostoni asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlari manzur bo'ldi. Shuningdek, **Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti** yetakchisi tomonidan o'tkazilgan «Yosh kitobxon» intellektual viktorinasi tadbirni yanada qiziqarli o'tishini ta'minladi.

Kecha so'nggida «Yozni 10 ta kitob bilan» loyihasi tashkil etildi. Jumladan, maktabning 5–10-sinf o'quvchilariga 10 ta asarni o'qib kelish topshirildi.

– Ro'yxatdagi asarlarni to'liq o'qib, mazmunini tengdoshlariga so'zlab bergan o'quvchi sovg'alar bilan taqdirlanadi, – deya tadbirga yakun yasadi maktabimizning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari **Dilafroz opa Razzoqova.**

Otabek BAKIROV,

Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi

KO'CHMA OROMGOH

Har yili «Yozni «Kamalak» bilan!» mega loyihasi yurtimiz bo'ylab ommaviy tarzda o'tkaziladi.

Toshkent shahrining Uchtepa tumanida joylashgan Cho'ponota mahallasida ham loyiha doirasida ko'chma oromgoh tashkil etilib, unda 600 nafar yoshlar bo'sh vaqtini unumli o'tkazdi. Quvonarlisi, «Kamalak» faollari turli tadbir, seminar-treninglar, qiziqarli suhbatlar, psixologik yondashuvlar, kitobxonlik hamda she'rxonlik musobaqalari tashkillashtirdi.

Marjona SHAROPOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
283-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

Bolajonlar, yangi o'quv yilida yangi, zamonaviy, qulay jihozlar bilan ta'mirlangan maktabda ta'lim olishni istaysizmi? Unday bo'lsa, Andijon shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Universal Academy xususiy o'rta ta'lim maktabi sizga muntazir.



YANGI O'QUV-YILIGA MAKTAB

– Bilim dargohiga bolalar, «Qachon tong otadi-yu maktabga boraman, qani endi darslar tugamasaydi», degan xohish bilan kelishlari

olish kursilarida, yotoqxonalarda hordiq chiqarishlari mumkin.

O'quv binosiga kirib borar ekansiz, devorlarda e'tiborni tortadigan boshqotirmalar, rang-barang suratlariga ko'zingiz tushadi. Bu yerda o'quvchilar uchun 10 dan ortiq to'garak tashkil etilgan bo'lib, ba'zilar chet ellik mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

– Maktabimizda nafaqat o'quvchilarning bilim doirasi, balki o'qituvchilarning ham ko'nikma va malakalarini oshirib borish uchun haftaning dam olish kunlari treninglar o'tkaziladi, – deydi maktab rahbari **N. Haydarova.** – Ta'lim maskanimizdan kelajakda bilimdon, o'qimishli yigit-qizlarni yetishib chiqishini istaymiz. Albatta, bunda bizga ota-onalarning yordamlari kerak bo'ladi. Shuning uchun har oyda ota-onalar uchun maktabda master-klass va psixologik treninglar tashkil etiladi. Bu orqali oiladagi muammolarni bartaraf etish choralarini ko'riladi.

Yaqin kelajakda yurtimiz farzandlarini o'qishga jalb qilish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ana shunday maktablar mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida tashkil etiladi, albatta.

Nigora ABDUNAZAROVA



uchun qo'limizdan kelgan barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiramiz, – deydi maktab rahbari, psixolog **Nilufar opa Haydarova.**

– Ushbu ilm maskanining davlat umumta'lim maktablaridan farqi shundaki, sinfda 18–20 nafargacha o'quvchi tahsil oladi. Bu ularning darsni yaxshi o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Shu bilan birgalikda, o'quv dargohimizda matematika, ingliz va rus tillari chuqur o'rgatiladi. Bundan tashqari, bolalar ikki mahal turli mineral va darmondorilarga boy issiq ovqat bilan ta'minlanadi. Shuningdek, maxsus dam

maskanimizdan kelajakda bilimdon, o'qimishli yigit-qizlarni yetishib chiqishini istaymiz. Albatta, bunda bizga ota-onalarning yordamlari kerak bo'ladi. Shuning uchun har oyda ota-onalar uchun maktabda master-klass va psixologik treninglar tashkil etiladi. Bu orqali oiladagi muammolarni bartaraf etish choralarini ko'riladi.

Nigora ABDUNAZAROVA



GULRUXSORNING KUTUBXONASI

«Ta'tilni qay darajada maroqli va samarali o'tkazmoqdasiz?» degan savolimizga **Gulruxsorning arziqli javobi bor. Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 38-DIUMning 10-sinfiga ulkan orzu va maqsadlar ila qadam qo'ygan iste'dodli o'quvchi ayni kunlarda respublika miqyosida o'tkazilayotgan «Yosh kitobxon» tanlovida ishtirok etmoqda.**

Uning kitobga bo'lgan mehri bo'lakcha. Shu bois, bugun Gulruxsorning oilaviy kutubxonasida 300 dan ziyod turli nomdagi adabiyot jamlangan. Iste'dodli tengdoshingiz «Kamalak» yulduzlari, «Yuksak ma'naviyatli avlod», «Mustaqillik madhi bolalar ijodida», «Jaholatga qarshi ma'rifat», «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» kabi tanlovlarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Qolaversa, uning ijodiy ishlari respublika bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasida chop etilmoqda.

Men to'garak rahbari sifatida ijodkor shogirdingizga yuksak parvozlarni, navbatdagi tanlovlarda

esa faqat va faqat g'alaba yor bo'lishini tilayman. Zero, uning o'z she'rlarida yozganidek, orzulari bir olam...

*Baxtiyor qizingman, foyda keltirsam,
Har qarich yeringga, ulug' xalqimga.
Orzular ushalar, gulga to'ldirsam,
Muqaddas nomingni joylab qalbingga.*

Gavhar IBODULLAYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi



Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zal va zehnimizni ravshan qilmoq lozim.

Abdulla.AVLONIY

O'quvchilarning yozgi ta'til kunlarini maroqli o'tkazish maqsadida poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 123-umumta'lim maktabida «Qaldirg'och» sog'lomlashtirish maydonchasi faoliyat olib bormoqda.

QAYNOQ FASLNING LAHZALARI



– Maydonchada har kuni 70 dan ortiq o'quvchi turli to'garaklarda faol qatnashyapti. Jumladan, bolalar sportning shaxmat, shashka, stol tennisi turlari bilan muntazam shug'ullanmoqda. O'quvchilarning mutolaa madaniyatini yuksaltirish maqsadida «Kitobsevarlar klubi» tashkil etilib, dam oluvchilar maktab kutubxonasi rahbari Mahbuba Rashidova boshchiligidagi turli mazmundagi ertak va badiiy kitoblarni o'qib, mazmunini bir-birlari bilan o'rtoqlashmoqda. Tashkil etilayotgan sport musobaqalari, she'rxonlik, bahribayt bellashuvlari esa yosh iste'dodlarni saralamoqda, – deydi maydoncha rahbari Dildora Nuriddinova.

Bir so'z bilan aytganda, «Qaldirg'och»da o'quvchilar maroqli hordiq chiqarmoqda.

Muzaffar AHMEDOV

SHOV-SHUVGA SABAB BO'LGAN MAKTAB: sizni u yerda tahsil olishingizni istamaymiz!

Aziz o'quvchim! Biz bolalar ijodkorlari yurtimizdagi har bir o'quvchi, gazetonni ona Vatanimiz kelajagi deb bilimiz. Sizning yutuqlaringiz haqida to'liqlanib yozamiz-u, hayotingizga oid salbiy voqealar, muammolardan qattiq kuyinamiz. Shu kunlarda ko'pchilikning e'tiboriga tushgan bir noxush xabarni sizga ham yetkazib, ogoh etishga jazm qildik.

O'zbekistonda yagona bo'lgan Samarqand shahridagi 64-sonli alohida saqlash sharoitlari, tarbiya va ta'limga muhtoj o'g'il bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatida og'ir xulq-atvoriga ega, uzoq muddat hisobda turgan, xavfli xatti-harakatlarni sodir etgan, biroq jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan, 11–16 yoshdagi voyaga yetmagan bolalar tahsil oladi. 12 yoshli Elmurod Mirzayev shu yil aprel oyida Toshkent shahrining Sergeli tumanidagi 237-umumta'lim maktabidan mazkur dargohga keltirilgan. Sababi, u maktabda tez-tez dars qoldirgan, o'quv jarayoni vaqtida o'qituvchilarga halal berib, sinfdoshlari bilan janjallashgan va urishgan. Ma'lumotlarga ko'ra, u bu yerda axloqsizligi uchun achinarli holda jazolangan. Mazkur holat ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Xalq ta'limi vazirligi xodimlari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Biz esa siz bilan masalaning boshqa tomonini muhokama qilmoqchimiz. Zero, bu ayanchli voqeadan nafaqat rahbar yoki mutasaddi xodimlar, balki siz ham kerakli xulosa chiqarishingiz lozim.

Ushbu maxsus maktabda shart-sharoit qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u

yerda borishni hech qaysi aqli raso bila istamaydi. Shu bois, bugun barchangiz ushbu voqealardan saboq chiqarib, oqibati ana shunday ko'chalar-u maskanlarga eltadigan yo'llardan yurmasligingizni istaymiz. Do'stingiz bilan arzimasa narsa ustida tortishib qolganingizda, unga «kuchingizni ko'rsatib qo'yishdan» avval bir zum mulohaza qilib, ko'z oldingizga boshlamoqchi bo'lgan mushtlashuvingizning oqibatini keltiring! O'z-o'zingizni boshqarishda, irdolari bo'lishingizda esa sizga sport katta yordam beradi. O'qigan kitoblaringiz, ertaklaringizdagi qahramonlarni eslang, ular muammoni hal etish uchun bilagidagi kuchini emas, aql-idrokini ishga solishgan. Johil yoki nodonlar bilan tortishmay, masalani donolarcha hal etishgan. Bu sizning ham qo'lingizdan keladi. Raqibingiz esa sizdan boshqacha munosabat kutgani uchun ham mot bo'ladi-qo'yadi. Aslida bugun orangizda shunday yo'l tutadigan, bilim va tafakkurli, iqtidorli o'quvchilar talaygina. Biz esa barcha-barchangizni shunday bo'lishingizni istaymiz. Qolaversa, ba'zi jizzaki bolalarga «Siz ham to'g'ri yo'ldan boring», deymiz.

Sayyora QODIROVA

Bog'chamizda quvnamiz shodon, Baxt bezadi bizga bog'cha jon!

– Assalomu alaykum, bolajonlar!

– Assalomu alaykum, xonamizga xush kelibsiz! – jajji kichkintoylar chaqqonlik bilan o'rinlaridan turib, tabassum bilan tarbiyachi opani qarshi oldi.

Shohida Sobirova har tong ish kunini bolalar bilan ana shunday salomlashishdan boshlaydi.

Nodira opa Muhitdinovna rahbarlik qilayotgan Shayxontohur tumanidagi 461-MTMda tajribali tarbiyachilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular orasida Shohida Sobirova jajji bolajonlarni tar-

biyalashdek ezgu ishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan ta'lim fidoyilaridan biridir. Darhaqiqat, tarbiyachi deganda, ko'z oldimizga mas'uliyatli, shu bilan birga, sharafli kasb egalari gavdalanadi.

Qahramonimiz yoshligida mahallasidagi 17-maktabgacha ta'lim muassasasi yonidan o'tayotib, bolajonlarning sho'x, quvnoq, jarangdor ovozlari bilan zavqlanib, ularning xatti-harakatlarini erinmay kuzatardi. Shu sabab, o'rta maktabni bitirayotib, «Tarbiyachi bo'lish – eng

katta orzum» mavzusida insho yozadi.

Shohida Sobirova mutaxassisligi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgach, dastlabki faoliyatini Shayxontohur tumanidagi 461-maktabgacha tarbiya muassasasida boshladi. Ish jarayonida har bir bolaning psixologiyasini puxta o'rganib, ular bilan til topishga harakat qildi. Bog'chani bolalar tarbiyalanadigan ulug' dargoh deb bildi. Uzoq yillar unga ustozlik qilgan Sohibjamol Olimxonovanning o'g'illariga amal qildi.

– Turli fe'l-atvordagi bolalarni barkamol inson bo'lib ulg'ayishida oila va maktab-

gacha ta'lim muassasasining o'zaro hamjihatligi muhim o'rin tutadi, – deydi Shohida opa. – Faoliyatim davomida bolasi nima desa, shuni muhayyo qiladigan, farzandini hammadan ustun qo'yadigan, aksincha, tarbiyachini ikkinchi ona sifatida bilib, ularga dilbandlarini ishonib topshiradigan ota-onalarni ko'rdim. Albatta, tarbiyachi ularning har biri bilan individual tarzda shug'ullanishi, taklif va e'tirozlarni to'g'ri qabul qilishi lozim.

Prezidentimizning «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish

chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda 2017–2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha dasturning qabul qilinishi soha rivojida yangi sahifa ochdi. Bugun maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tizimli tashkillosh-tirish, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash borasidagi keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Shohida opa hozirda Sevara Salimova, Nodira Oxunova, Saodat Rixsiyeva kabi ko'plab yoshlarga ustozlik qilib kelmoqda. Biz bu bilimdon shogirdlarning ustozlaridan o'mak olib, ta'lim sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishiga tilakdoshmiz.

Nodira NAZAROVA



– Biz sanash, yozish va o'qishni o'rganyapmiz, – deydi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari.

IJOD MASKANIDA...

Ta'tilda bo'sh vaqt ko'p bo'ladi-da! Ayniqsa, yoz kunlarining uzunligini aytmaysizmi? Bu paytda ba'zi bolajonlar sport musobaqalari-yu, maktab oromgohlarida vaqtlarini chog' o'tkaza, ayrimlari hunar o'rganib, ta'til kunlariga yanada mazmun bag'ishlamoqda. Gazetamizning bu galgi sonida ana shunday izlanuvchan, ilmga chanqoq o'quvchilar va ularning fidoyi ustozlari haqida hikoya qilamiz.



Buxoro viloyat «Barkamol avlod» markazida jami 27 ta to'garak faoliyat olib borayotgan bo'lib, ularda 1200 nafardan ortiq o'quvchi bo'sh vaqtini

mazmunli o'tkazmoqda. To'garak xonalari kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlangan bo'lib, zamonaviy tikuv mashinalari, kompyuter, duradgorlik dastgohlari o'quvchilar ixtiyorida. Chunki zarur asbob-uskunalarisiz o'quvchilar ko'zlagan maqsadlariga erisholmaydilar-da.

Fidoyi ustoz, «Tasviriy san'at» to'garagi rahbari Malika Muzaffarova 120 nafardan ortiq o'quvchiga o'z bilim va ko'nikmalarini o'rgatib, ko'plab ota-onalarning hurmatiga sazovor bo'lmoqda. Muallimaning iqtidorli o'quvchilaridan Nasiba Bafoiyeva «OITS va giyovvandlikka qarshi birlashaylik» mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovining viloyat bosqichida birinchi o'ringa kiritib, bellashuvning Respublika bosqichida «Eng iqtidorli rassom» nominatsiyasi g'olibiga aylandi. Shuningdek, «Raqs» to'garak a'zolari – Asal Tohirova, Manzura Asadova, Mehribon O'ktamova viloyatda o'tkaziladigan turli tadbirlarda o'z chiqishlari bilan barchaning ko'ngliga quvonch ulashmoqda. To'garak rahbari Nozimaxon Teshayeva har bir mashg'ulotni o'zgacha ishtiyiq bilan o'tishga harakat qiladi.



– Yozgi ta'tilda markaz kutubxonasiga o'quvchilar qatnovi yanada ortadi, – deydi Axborot-resurs markazi mutaxassisi Anora Xayrullayeva. Kutubxonada yangi kitoblarni ko'rganmasi, she'riyat kechalari, shoirlar bilan uchrashuvlar tashkil etilishi bolalarning adabiyotga bo'lgan mehrini yanada oshirmoqda.


Kitobxon o'quvchilar Anvar Obidjon, Kavsar Turdiyeva, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tursunboy Adashboyev va Janni Rodarining kitoblarini katta qiziqish bilan o'qishayotgan ekan. Bundan ilhomlangan ijodkor qizlar – Mohina Fayzullayeva va Aziza Bobojonovaning ilk she'riy kitoblari nashrdan chiqibdi. Ayniqsa, o'qigan ertak kitoblari yuzasidan sahna ko'rinishi tayyorlagan Sunnatillo, Elbek, Umida, Azizbek va Mohinurning iste'dodiga barcha tasannolar aytdi.

Bir so'z bilan aytganda, markazda bolalarning har bir kuni maroqli o'tmoqda. Zero, hunar o'rganish orqali inson orzu-umidlariga yetishadi. Xalq olqishiga sazovor bo'lib, ustozlar yuzini yorug' qiladi.

Dilobar MUHIDDINOVA, markazning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, Ozoda TURSUNBOYEVA

LEARN PROVERBS

1. Don't put too many irons in the fire – Don't try to do too many things at the same time.
2. Honest is the best policy – It always better to tell the truth.
3. Don't bite the hand that feed you – If someone helping you out you have to be careful not to make them angry.
4. There no time like the present – If you need to do something do it now.
5. Familiarity breeds contempt – When you're around someone for long, you get tired of them and annoyed by them.



USEFUL INFORMATION


When we use capital letters?

1. The first word of every sentence.
2. The pronoun I.
3. The name of people.
4. The name of places.
5. The names of street, cities, countries.
6. A person's initials.
7. The beginning and the closing of a letter.

Ma'mura G'ULOVA

LEARN VOCABULARY

Try to find new words with the beginning letter «O»



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

PARTS OF SPEECH

Read the words and tick the suitable parts of speech.

Word	Noun	Adjective	Adverb	Verb	Number
New		✓			
Cry					
Eight					
Sometimes					
Meet					
Recently					

Dinora ABDULLAJONOVA



Ochiil TOHIR

SANAY TURIB, ADASHMA

(She'r qisqartirib berildi)

Sonlararo men yoshman, **Birman** – ularga boshman. Ishonmasang olib bo'r, Doskaga sen yozib ko'r.

Bir barcha songa uka, **Ikki** eng kichik aka. Ikkovi juda quvnoq, Hamda ahil-u inoq.

Uch izidan kelar to'rt, Emas aslo nozik, mo'rt. «Yaxshi» baho to'rt bilsang, Izi beshdir intilsang.

Besh raqamining orti, Atalar nomi **olti**. Sanashga yetmas bir qo'l, Yangi songa ochar yo'l.

Sirli raqamdir **yetti**, Yoshing yettiga yetdi. Chorlab turar, bo'l ogoh, Maktab atalgan dargoh.

Yettidan so'ng bilsangiz, Raqamning nomi **sakkiz**. Sakkiz deyishga shoshma, Sanay turib, adashma.

Xo'sh, undan so'ng qanday son? Bilganga, juda oson. Qani, aytig o'zingiz, Ha, topdingiz, bu **to'qqiz**.

Nol demang bir chaqa, Aylana, teshik, halqa. Bir o'zi yurmas yakka, Sonlarga u baraka.

Bir songa tirkalsa nol, Unga ochilar keng yo'l. Eslab qoling, bolalar, **O'n** o'nli son atalar.

Yondosh tursa ikkita bir, Uning nomidir **o'n bir**. Birga ergashsa ikki, Deymiz uni **o'n ikki**.

O'n uch, o'n to'rt soni ham, Shu xilda etar davom. **O'n beshdan to' o'n to'qqiz**, Bir bilan butun, to'kis.

Aytib dildan tashakkur, Asta joy bo'shatdi bir. Nolni imlab der ikki: «Endi navbat bizniki».

Sekin jilmayib nolga, Chiqaylik katta yo'lga. Faqat shoshma, yugurma, Bilgin, noming **yigirma**.

ORZU

Orzu qilib yashardi, Olti yoshli Muzaffar. Uchuvchi bo'lsam, derdi, Osmonda quchib zafar.

Oq bulutlar ichida, Oyi, uchib yurardim. Oyning oldiga borib, Sizga kulcha uzardim.

Tizib ipga yulduzni, Yasay sizga bir marjon. Quvib qora bulutni, Ko'kni qilay saranjom. Ha, aytgancha, ukamga, Bulutdan yasab toychoq. Kamalakning yo'lga, Bog'lab qo'yay o'yinchoq.

Shunday xayollar bilan, Muzaffar o'y surguvchi. Bir kun kelib, albatta, Bo'lsam, derdi, uchuvchi.

Nafisa QURBONOVA,
Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi
17-umumta'lim maktabi o'quvchisi



DO'STLIK BIZGA MADADKOR

Behruz, Sherali, Sohira, Odil, Ular a'lo baho olishga qodir. Ham maktabda, ham uyda o'mak, Shundan tole, omad yor demak.

Behruz ila Odil san'atni sevar, Biri doira chalsa, birisi kuylar. Sohira-chi, shoira bo'lmoqchi, Sherali ham oyga qo'nmoqchi.

Havas qilar qolgan bolalar, A'lo o'qish uchun intilar. Shundan bizning sinfimiz ilg'or, Do'stlik bizga doim madadkor.

Sherdil USMONOV,
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi
211-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Hamid ertalab kech uyg'ondi. Shu bois, tuzukroq nonushta qilmasdan maktabga otlandi. Buvisining «Papkangga non-pon solib ol», deganiga ham quloq solmadi. Mana, endi ikkinchi soat tugamasidanoq qorni ochib, ko'ngli ayniyapti. Qo'ng'iroq chalinsa, bufetdan biror narsa olib yeb olarman, hech kimga sezdirmay tamshandi. Keyin qo'lini shimining cho'ntagiga tiqdi. Bo'm-bo'sh! Eh, buvimning nafaqasi cho'zilib ketmagan, maktabda korjikmi, keksemi olib yersan, deb bir-ikki so'm berardi. Yoki Jasurdan qarz olib tursammikan, partadoshiga umidvor qaradi. Ammo qarzni qachon qaytarishi mumkinligini bilmagani uchun so'ray olmadi. Chiqishga qo'ng'iroq chalin-gach, bolalar maslahatlashib olganday baravariga tashqariga chiqib ketishdi.

Keyingi darsga tayyorlanib tura qolay, Hamid shu o'yda parta ustida turgan tarix kitobini olib o'qishga kirishdi. Keyingi sahifani ochgandi, «Mana, sen qidirgan narsa», degandek undan uchta 500 so'mlik pul chiqib qoldi. Shundagina u o'zining emas, partadoshi Jasurning kitobini varaqlayotganini bildi. Shu choq, «Bizni ham qiynama», degandek qorni quldiradi. Hamid shoshib pulni oldi va cho'ntagiga soldi. Shu payt qo'ng'iroq chalindi. Hamma sinfga qaytdi. Tarix o'qituvchisi majlisga ketgan ekan, dars bo'lmadi. O'rniga yana chet tili bo'ldi. Jasur kitobini ochib ham ko'rmay, papkasiga solib qo'ydi.

– Hamid, ketdikmi, nega shalpayib o'tiribsan? – hayron bo'lib dedi Jasur oxirgi dars tugasa ham joyidan jilmay o'tirgan o'rtog'iga.

– Sen ketaver, men tog'amnikiga boraman, ularnikida bugun hashar, – dedi Hamid sekingina. (Aftidan, u pul o'g'irlagani yetmagandek yolg'on

gapirishga ham majbur bo'lganidan uyalayotgan edi).

– Bo'pti, o'rtoq, agar hasharga odam kerak bo'lsa, telefon qilib chaqir. Bugun uyda ishim kamroq, – xayrlashib chiqib ketdi Jasur.

– Ha, Qodirov, qayoqdan kun chiqdi? Odatda, maktabdan eng birinchi sen ketarding-kul! Yoki tobog yo'qmi? Ranging o'chibroq turibdi, – oyog'ini zo'rg'a sudrab ketayotgan Hamidga ajablanib tikildi



(Hikoya)

«Kamalak» yetakchisi Saida opa.

– Yo'q, o'zim. Xayr, Saida opa, – yetakchining tiyrak nigohi xuddi sirini bilib olayotgandek Hamid yerga qaraganicha qadamini tezlatdi. U uyiga odatdagidek do'kon tomondan emas, choyxona tarafdin ketishga qaror qildi. Chunki choyxonaga ketaverishda gumma sotiladi. Shundoq yog'da qaynab turgan joyidan olib berishadi. Hamid tamshanib qo'ydi.

– Osh bo'lsin, faqat shoshilma, og'zing kuyib qolmasin, – tayinladi sotuvchi Karima kelinoyi.

Hamid uyga yetguncha gummalarni yeb qo'ydi. Buvim sezmasin, deb qo'l va og'zini dastro'moliga yaxshilab artdi.

– Keldingmi, bolajonim, issiqqina sho'rva solib qo'ydim. Birga ichamiz. – Buvijon, qornim to'q, faqat choy ichaman, – Hamid kiyimini almashtirib

chiqib xontaxta atrofiga o'tirdi. Buvisi uzatgan piyolani olayotib, qo'li qaltirab ketdi. Choy dasturxonga to'kildi.

– Iye, bolam, mazang qochdimi? Jiqqa ter bo'lib ketibsan-u... – Zamira buvi nabirasining peshonasini ushladi. – Boshim emas, qornim, qornim, og'riyapti. U o'rmidan turib vannaxonaga yugurdi...

– Yo'lda biror narsa yegan bo'lsang, nazar tushgan yoki birovning nasibasini yeb qo'ygansan, – qaytib kelib holsizlanib, ko'rpachaga cho'zilib qolgan nabirasini ko'zlariga qaradi Zamira buvi.

– Birovning haqini yesa, qorni og'riydimi? – o'rmidan turdi Hamid. – Ha, bolam, birovning haqini yeyish, ayniqsa, so'ramasdan yeyish gunoh, – dedi buvisi. – Hozir uyingga telefon qilamiz, dori olib keladi. Shu choq Hamidning qo'l telefoni jiringladi. Jasur ekan.

– O'rtoq, yordamga boraymi? – so'radi u.

– Hasharga bormadim, mazam bo'lmadi. O'rtoq, iltimos, menga tarix kitobingni berib tur, dars tayyorlab olay. O'zimiznikini ustoz olgandi.

– Bo'pti, hozir boraman, qayering og'riyapti, dori kerakmasmi?

– Kerakmas, kitob olib kelsang bo'ldi, – inqilladi Hamid... Jasur kelib ketgach, Hamid biroz oyoqqa turdi. Tarixdan berilib dars tayyorladi. Shu payt darvoza taqilladi. Mahalla vakili ekan. Buvisiga nafaqa olib kelibdi.

– Mana, bolam, kecha pul so'ragandim, mana bu pulni olib qo'y. O'rtoqlaring bilan bufetdan ul-bul olib yersan, – deb 3000 so'm berdi. Nahotki, buvim biror narsani sezgan bo'lsa, hijolatdan Hamidni ter bosdi. Lekin, «Rahmat», deb pulni oldi. Buvisi chiqib ketishi bilan uchta 500 so'mlikni Jasurning kitobi ichiga soldi. Yelkasidan og'ir yuk qulagandek bo'ldi. Buvisi to'g'ri aytilibdi. Shu zahoti qornidagi og'riq ham taqqa to'xtadi.

– Endi hech ham birovning haqini yemayman, – u shunday deb o'ylarkan, beixtiyor qo'llarini orqasiga yashirdi.

Muhabbat HAMIDOVA

MAYDONDA YOSH FUTBOLCHILAR

Poytaxtimizda futbol bo'yicha 15 yoshli bolalar o'rtasida Markaziy Osiyo turniri ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi.

Unda futbolchilarimiz bilan birga Eron, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Afg'oniston terma jamoalari g'oliblik uchun bahs olib bordi. Quvonarlisi, ushbu nufuzli musobaqada yosh charmtop ustalarimiz munosib ishtirok etib, muxlis-u mutaxassislar olqishiga sazovor bo'ldi.

Bellashuvlar tugagach, g'olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Unga ko'ra, Eron futbolchilari Markaziy Osiyo turniri g'olibi bo'ldi.

Yosh futbolchilarimiz 2-o'rinni egallab, kumush medalga loyiq deb topildi. Tojikiston jamoasi musobaqaning bronza medaliga sazovor bo'ldi. Shuningdek, turnirda «Eng yaxshi futbolchi», «Eng yaxshi hujumchi», «Eng yaxshi himoyachi» kabi nominatsiyalar ham o'z egalarini topdi.



G'OLIBLAR – SHOHSUPADA

Bolgariyaning Plovdiv shahrida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha 23 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida o'tgan jahon chempionatida o'zbek sportchilari o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini namoyish etib, yakunda sovrindorlar safidan o'rin egalladi.

Jahonning 85 mamlakatidan 500 nafar eng sara atlet ishtirok etgan turnirda sportchilarimiz ikkita kumush medalni qo'lga kiritdi.

Jumladan, 200 metrlik masofaga eshkak eshish bo'yicha mohir sportchi qizlarimiz – Dilnoza Rahmatova hamda Nilufar Zokirova tandemi marraga ikkinchi bo'lib yetib keldi va kumush medal bilan taqdirlandi. Shuningdek, 500 metr masofaga eshkak eshgan Artur Guleyev va Elyorjon Mamadaliyev ham jahon chempionati sovrindori bo'ldi.

S. TURSINOV

HUSHYORLIK XOTIRJAMLIKDIR

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 1-sonli BO'SMda Toshkent shahrida «Basseynlarda ish faoliyatini samarali tashkil etish» mavzusida amaliy seminar o'tkazildi.



Tadbirda bolalar-o'smirlar sport maktablari basseynlarida suzish sport turi bo'yicha faoliyat yuritayotgan yuridikchi-uslubchilar, trener-o'qituvchilar, hamshiralari va mas'ul xodimlar ishtirok etishdi. Soha mutaxassislar tomonidan basseynlarda o'quv-mashq mashg'ulotlarini tashkil etishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, jarahatlanishning oldini olish, basseynlarda cho'kish holatida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kabi mavzular bo'yicha trening mashg'ulotlari tashkil etildi.

Shukrulla G'ULOMOV

MUSOBAQA DAVOM ETADI

Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshli» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida Chimyon hududida joylashgan oromgohlar o'rtasida «Olimpiya harakati» shiori ostida spartakiada o'tkazildi.

«Chotqol», «Fazogir», «Konstruktor» nomli bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari ishtirok etgan musobaqada «Quyoshli» oromgohi g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2-o'rinni «Konstruktor», «Fazogir» oromgohi jamoasi esa 3-o'rinni egalladi.

Musobaqa g'olib va sovrindorlariga Toshkent shahar Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi tomonidan diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.



BIZ – CHEMPION!

Mahalla yoshlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ular o'rtasida o'zaro madaniy-sport aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida «Biz – chempion!» shiori ostida yo'l to'sig'idan o'tish bo'yicha «Megasport» musobaqasining Surxondaryo viloyati bosqichi bo'lib o'tdi.

Termiz shahridagi akademik litseyda tashkil etilgan mazkur musobaqada 10 nafardan iborat 14 jamoa ishtirok etdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, Termiz shahar jamoasi 1-o'rinni egalladi. Sherobod tuman jamoasi 2-, muzrabotliklar 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

G'olib jamoa – Termiz shahridagi «O'zbekiston» mahallasi yoshlari joriy yilning 27–29-avgust kunlari Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan musobaqaning Respublika bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Muhammadsodiq ALIMOV

POLVONLAR MAKTABI

Buxoro viloyati, Olot tumani bolalar-o'smirlar sport maktabida 2018-yil boshidan hozirgi kunga qadar O'zbekiston chempionati, kuboklari hamda xalqaro turnirlarda 100 nafardan ortiq sportchi g'olib va sovrindorlar safidan joy egalladi.



Mazkur sport maktabi viloyatda muaytay bo'yicha mahorat maktabi sanaladi. Ushbu sport turini viloyatda ommalashtirishda murabbiy Qurbonmurod Qurbonovning hissasi katta.

Joriy yil 24–28-iyul kunlari Jizzax shahrida 2004–2006-yillarda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida milliy kurash bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Musobaqada murabbiy Alisher Shapagatovning shogirdi Firdavs To'rayev 40 kg vazn toifasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Gavhar Ahmedova 36 kg vaznda 2-, To'ygul Hamroyeva 52 kg vaznda 1- hamda Ruxshona Bahodirova 50 kg vazn toifasida 3-o'rinni egalladi.

Shohruh MUSAYEV

METOGRAMMA

Metogramma – boshqotirma soʻz oʻyini boʻlib, topishmoqlarning bir turi hisoblanadi. U ikki yoki toʻrt satrdan iborat boʻlib, bir-biriga oʻxshash (qofiyadosh) ikki soʻz topiladi. Baʼzan qoʻshqotishmoq ham deyiladi.



Boshimizdan dur sochar,
Juda hurkak zoʻr qochar.
(Quyosh–quyon)



Bugʻdoy boʻlsa onasi,
Quyosh ekan bolasi.
(Don–non)



Sanab koʻrsam beshqacha,
Shirin nondek boshqacha.
(Toʻrt–tort)

Anvar MIRZAZODA



Sadaf yangligʻ donasi,
Kumush fasl durdonasi.

(Tish–qish)

Masalan:
Bahomiz aʻlosi,
Aqlimiz xonasi.

Birinchi qatordagi topishmoqning javobi «besh», ikkinchi qatordagisi esa «bosh»dir. Ular faqat bitta harf bilan farqlanadi.



Biri choʻzilib yotar,
Boyluk maʼdanlar koni.
Biri sharbatin tutar,
Oʻsimliklar makoni.
(Togʻ–bogʻ)



Tovus misol jonlanar,
Atlas rangda tovlanar.
«M» harfin oʻchirib, «P» qilsang,
Gulzor boʻylab aylanar.
(Kamalak–kapalak)

BOʻSH OʻTIRMAY, BOSH QOTIR!

«ON»LI NOMLAR ADABIY TOPSHIRIQ

Quyida taʼriflangan nomlar badiiy ijodga oid boʻlib, «on» soʻzi bilan tugallanadi. 1. Atoqli oʻzbek adibi, «Kecha va kunduz» romani, «Xalq» sheʼri muallifi. 2. Sharqning mumtoz shoiri, mutafakkir Saʼdiy Sheroziyning mashhur asari. 3. XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida yashab oʻtgan otashin ingliz shoiri. 4. Oʻzbek shoiri Usmon Nosir qalamiga mansub dostonlardan biri. 5. Taniqli Amerika yozuvchisi, «Hayotga muhabbat» asari muallifi. 6. Yirik nazmiy asar. 7. Turk adibi Rashod Nuri Guntekin yozib qoldirgan «Choliqushi» romani qahramoni. 8. Arab yozuvchisi, publitsist va olim, Markaziy Osiyoda VII–VIII asrlarda boʻlib oʻtgan voqealar bayon etilgan «Fargʻona kelini» romani muallifi. 9. Sharq mumtoz adabiyotiga xos sheʼriy topishmoq. 10. Togʻay Murodning «Oydinda yurgan odamlar» qissasi qahramoni. 11. Abdurauf Fitrat qalamiga mansub dramalardan biri. 12. Oʻzbekiston xalq shoiri ismi sharifidan Xurshid ... 13. Ingliz adibasi Agata Kristi romani.

1				on
2				on
3				on
4				on
5				on
6				on
7				on
8				on
9				on
10				on
11				on
12				on
13				on

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

MEHR

Ona!

Naqadar buyuk va qudratli soʻz. Bu soʻzni eshitish bilan yuraklar hayajonga toʻladi. Uning munis siyomosi koʻz oʻngimizda gavdalanadi. Tomirimizdan mehr-u muhabbat daryo kabi toshaveradi. Ona mehrini quyosh nuriga qiyoslasak, xato boʻlmaydi. Negaki, quyosh ham barchaga birdek nur sochadi. Onalar ham shunday. Hamma bolalarni oʻz farzandiday koʻradi. Mehrini birdek ulashadi.

Bir soʻz bilan aytganda, Ona bu Oftob. Biz doimo mana shu oftob nurlariga intilib yashaymiz.

Gulchiroy SULTONBEKOVA,
poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi
48-umumtaʼlim maktabi
oʻquvchisi

TEZ AYTISHLAR

Salima saharlab sakkiz sogʻin sigirni sogʻdi.

Salima savatga somsani sanab soldi.

Toʻlqinning toʻtisi tunuka tomni taqillatdimi yo yongʻir yogʻib Yolqinni laqillatdimi?

Toʻlqin toshloqda tosh terdimi yo Temur toshloqda toydimi?

Yayra yam-yashil yaylovda yanada yayradi.

Samad savat toʻqidi, Tolib kitob oʻqidi.

Abdusamad YUNUSOV,
Xalq taʼlimi aʼlochisi, faxriy muallim